



ABU ZAYD DABUSIY VA UNING ILMIY MEROSI

Orifjon ERGASHEV

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom

instituti 401-guruh talabasi

e-mail: ergashevorifjon1995@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoziyul-quzot nomi ila mashhur bo‘lgan Abu Zayd Dabusiyning hayoti va ijodini yoritish bilan bir qatorda, u zotni chuqur ilmiy merosini ham keltirib o‘tamiz. Hamda u zot haqlarida ulamolarni maqto‘v va e’tiroflarini keltirib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: usulul-fiqh, Dabusiya shahri, qozi, fihq ilmi, ijti‘hod, taxrij, tasavvuf, mazhab.

Abu Zayd Dabusiyy (367-430/978-1039)ning to‘liq ismi Ubaydullo‘h ibn Umar ibn Iso Dabusiyy bo‘lib, “Abu Zayd” uning kunyasidir. Buxoroning mashhur etti qozisidan biri bo‘lgan. Abu Zayd Dabusiyning ota-onasi, oilasi va yoshligi haqida cheklangan miqdordagi ma’lumot uchraydi. Abu Zayd Dabusiyy yashagan davr Movarounnahrda ilm-fan rivojlanayotgan davr bo‘lib, hanafiy va shofi’iy mazhablari o‘rtasida ilmiy munozaralar kuchaygan edi¹.

¹ابوحفص

نجم الدين عمر النسفي. القند في ذار علماء سمرقند. تحقيق يوسف الهادي. تهران: آينه ميراث، 1999\1420.
(бундан кейин: ан-Насафий, ал-Қанд). — Б. 467



Dabusiyy ikki buyuk faqih Abu Bakr Muhammad ibn Fazl Buxoriy va Abu Bakr Jassosning shogirdi Abu Ja'far Abdulloh Ustrushoniylardan fiqh, usulul fiqh, xilof, jadal va tasavvuf ilmlarini o'rganib, fiqh bo'yicha iqtidorli olim darajasiga etdi². Uning ilmiy salohiyati va isti'dodi aksar olimlar tarafidan e'tirof etilgan. Dabusiyy ijti-hod va taxrij (hukmlarni manbadan chiqarib olish) salohiyatiga zga bo'lgan hurfikr olim edi. Fiqh ilmi, hanafiy mazhabi takomili, shuningdek boshqa fanlar rivojiga ham katta hissa qo'shdi va yuksak ilmiy ahamiyatga molik asarlar yozdi. Dabusiyy nafaqat fiqh sohasida, balki arab tili, tasavvuf va axloq-odob sohalarida ham bilim-ga ega bo'lgan. Olimning qalamiga mansub "Amadul aqso" asarida keltirilgan ma'lumotlar bu fikrga asos bo'ladi.

X-XI asrlarda Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida Abu Zayd Dabusiyyning salmoqli o'rni bor. Abu Zayd Dabusiyy yashagan davr Abbosiylar hukmronligi davrining (132-656/750-1258) o'rtasiga to'g'ri keladi. Abu Zayd Dabusiyyning to'rtta asari bugungacha etib kelgan. Ulardan uch-tasi to'liq nashr qilingan:

1. "Taqvimul adilla fi usulil fiqh" (تقويم الأدلة في أصول الفقه) – "Usul alfiqhdagi dalillarni to'g'rilash"). Bu asari hanafiy usulul fiqhi bo'yicha yozilgan ilk manbalardan biridir. Shu bilan birga, u o'sha davrda Movarounnahrda bu sohada yozilgan va bizgacha etib kelgan ilk manbadir. Asar usulul fiqh ilmiga oid bo'lishi bilan bir qatorda, unda ba'zi aqida masalalari ham bayon etilgan.
2. "Ta'sisun nazar" (تأسيس النظر) – "Fikr-mulohazani asoslash"). Bu asarda hanafiy mazhabi mujtahidlari, shuningdek, hanafiylar va boshqa mazhab mujtahidlari o'rtasidagi o'zaro ixtilofli masalalar to'plangan.
3. "Amadul aqso" (الأمم الأقصى) – "Eng oxirgi maqsad").

² Абул-Йуср Муҳаммад ал-Баздавий. Китоб фи усул ад-дин / Ҳ.-П. Линсс таҳрири остида. — Қоҳира: Дор ихйо ал-кутуб ал-арабиййа, 1963 (бундан кейин: ал-Баздавий, Усул аддин). — Бу ерда: Б. 154-155.



4. “Asror fil usul val furu” (الأسرار في الأصول و الفروع) – “Usulul fiqh va furu‘ul fiqhdagi sirlar”).

Quyida keltiriladigan beshta asar ham Dabusiya nisbat beriladi, lekin ularning qo‘lyozmalari hozirgacha topilmagan:

5. “Anvor fi usulil fiqh” (الأنوار في أصول الفقه) – “Usulul fiqhdagi nurlar”). Hoji Xalifa “Bu — muxtasardir. U “الحمد لله الذي أعلى منزلة المؤمنين” “mo‘minlarning darajasini yuqori qilgan Allohga hamd bo‘lsin!” so‘zlari bilan boshlanadi”³ deb ta’rif bergan.

6. “Xizonatul huda” (خزانة الهدى – “Hidoyatga olib boruvchi xazina”). Dabusiya ning Turkiyada saqlanuvchi ikkita asari “Amadul aqso fi xizonatil huda” (أمد الأقصى في خزانة الهدى – “Hidoyatga olib boruvchi xazinaning eng oxirgi chegarasi”) deb nomlanadi⁴. Bu esa “Amadul aqso” va “Xizonatul huda” asarlari mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

7. “Sharhul Jomi‘il kabir” (شرح الجامع الكبير) – “Katta to‘plam sharhi”). Bu Muhammad Shayboniyning (vaf. 189/804) “Jomi‘ul kabir” asariga yozilgan sharhdir.

8. “Tajnisud Dabusiya” (تجنيس الدبوسي – “Dabusiya mansub “Tajnis””⁵).

9. “Nuzum fil fatovo” (النظم في الفتاوى – “Fatvolardagi tartib-qoidalar”). Asarning nomidan unda fatvolarning qay tarzda va tartibda yozilishi lozimligi bayon etilgan degan ma’no tushuniladi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida Dabusiya asarlarini to‘rt yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Ular:

1) Usulul fiqh – “Taqvimul adilla” asari doirasida;

³ Мустафо ибн Абдуллох Котиб Чалабий Ҳожи Халифа. Кашф аз-зунун ан асоми-лкутуб ва-л-фунун / Ш. Йалткайя ва Р. Билге таҳрири остида: 2 жилдда. — Истанбул: Maarif vekaleti, 1360-1362/1941-1943 (бундан кейин: Ҳожи Халифа, Кашф аз-зунун).— В. 168.; В. 568.

⁴ Abu Zayd Dabusiya. Amadul aqso fi xizonatil huda. Istanbul: Beyazit kutubxonasi. Veliyuddin efendi bo‘limi. Qo‘lyozma № 1633, 1682.

⁵ Ҳожи Халифа, Кашф аз-зунун. — Т. 2. — Б. 703.



- 2) furu'ul fiqh – “Asror” asari doirasida;
- 3) ‘ilmul xilof – “Ta’sisun nazar” asari doirasida;
- 4) axloq-odob mavzusi – “Amadul aqso” asari doirasida.

Abu Zayd Dabusiyning “Taqqimul adilla” asarini yozishdan maqsadi –hanafiy usulul fiqhi sohasida o‘zigacha davom etib kelayotgan ayrim xatoliklarni to‘g‘rilash bo‘lgan. Olim o‘z sohasi bo‘yicha maqsadiga qay darajada erishganidan qat’iy nazar, asarda uning o‘zi yozgan asarlari “Amadul aqso”, “Asror” va “Xizonatul huda”da bildirgan qarashlari kamoliga etkazilgan. Dabusiyn usulul fiqh sohasida Iroq va Movarounnahr hanafiy faqihlari qo‘llagan uslublar va ularning dalillaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Chuqur bilimi sababli olim ikki hudud faqihlarining qarashlarini bir-biridan ajrata olgan. Bunga qo‘shimcha ravishda, asarda as’hobut tard, hashaviyya, zohiriy mazhabi va bugungacha etib kelmagan boshqa oqimlarning qarashlari ham keltirilgani sababli asar Movarounnahrda usulul fiqh va furu‘ul fiqh bilan bir qatorda sunniylik yo‘nalishi tarixini o‘rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Asarning aynan “Taqqimul adilla” (“Dalillarni to‘g‘rilash”) deb nomlanishi ham shu maqsad bilan bog‘liq. “Taqqimul adilla” 109 bobdan iborat bo‘lib, ularning har biri “...haqida so‘z” (al-qavl fi ...) jumlasini bilan boshlanadi. Ayrim boblar ichida fasllar ham uchraydi. Fasllarning soni sakkizta. Ushbu asarda muallif muayyan bir fiqhiy masalani bayon etganda, shu masala yuzasidan mujtahidlarning har biri bildirgan fikrlarni keltirishga harakat qilgan. Masalan, asardagi to‘qson to‘qqizinchi (باب القول في الأعذار المسقطة للوجوب بعد) “Balog‘atga etgan insondagi majburiyatni bekor qiladigan uzrli sabablar haqidagi bo‘lim”da quyidagi masalani keltiriladi: “Abu Hanifa va Muhammad aytganlarki, musofir o‘z yuklari orasidagi suvni unutib qo‘yib tayammum qilsa, joizdir. Chunki, u suvni unutgani sababli uni ishlata olmagan. Bu xuddi suv yo‘q paytida uni ishlatishga buyurilmagani kabidir. Abu Yusuf esa, bunga ruxsat bermagan”.



Dabusiyl o'z davrida mavjud bo'lgan fiqhiy mazhablarning qarashlaridan deyarli to'liq xabardor bo'lgan va "Taqvimul adilla"da lozim o'rinlarda ulardan tegishli misollar keltirgan. "Taqvimul adilla"ning o'ziga xosliklaridan yana biri – Dabusiylning diniy masalalardagi dalillarni "naqliy" (shar'iy hujjat) va "aqliy" (aqliy hujjat) kabi ikki turga ajratganidir. Ularning har biri o'z navbatida yana ikkiga – "Ilmga sabab bo'luvchi" (mujibat lil ilm) va "Ilmga imkoniyat beruvchi" (mujavviza)ga bo'linadi. Naqliy dalillar ichida "Ilmga sabab bo'luvchi"lari – muhkam oyat, mutavotir hadis va ijmo'dir; "Ilmga imkoniyat beruvchi"lari esa – ta'vil qilingan oyat, xabarul vohid, xos ma'noni anglatgan umumiy so'z va qiyos hisoblanadi.

Dabusiyl inson aqliga asosan diniy yoki dunyoviy tomondan muboh va harom hisoblangan amallar haqida izoh beradi. Asardagi "Ilmga sabab bo'luvchi aql dunyoviy hayot bilan bog'liq holatda shubhasiz mubohligiga hukm qiladigan amallar haqidagi" (باب القول في مباحات العقول للحياة الدنيا لا للدين قطعاً واجبالقول بالإباحة, B. 449-450) bir yuz ikkinchi bo'limda bu amallar to'rt qismga bo'lingan:

1. yeyish-ichish va nafas olish kabi hayot uchun zaruriy amallar;
2. inson o'z tanasini tashqi zarardan himoya qilishi;
3. jinsiy munosabatlar;
4. farzand tarbiyalash.

"Ilmga sabab bo'luvchi aql din bilan bog'liq holatda shubhasiz vojibligiga hukm qiladigan amallar haqidagi" (باب دينا في مباحات العقول الواجبة, B. 451-454) bir yuz uchinchi bo'limda esa quyidagi vojib amallar bayon qilingan:

1. inson o'zining banda ekanini anglashi;
2. Allohning yaratuvchi ekanini anglash;
3. hayot inson uchun imtihon ekanini anglash;



4. dunyo va undagi borliq bandalar foydalanishi uchun yaratilganini anglash.

Dabusiylar inson aqli ba'zi amallarni harom deb hisoblashini ham qayd etgan. "Ilmga sabab bo'luvchi aql dunyoviy hayot bilan bog'liq holatda shubhasiz haromligiga hukm qiladigan amallar haqida"gi (العقل قطعاً للدنيا باب القول في محرمات, B. 455) bir yuz to'rtinchi bo'limda bu amallar to'rt turga bo'linadi:

1. nodonlik (الجهل);
2. zulm qilish (الظلم);
3. bekorchi ishlar bilan shug'ullanish (العبيث);
4. zararli harakat (السفه).

Asarning bir yuz beshinchi bo'limida "Diniy tomondan qat'iyon haromligiga aql bilan hukm qilingan amallar" (باب القول في محرمات العقل قطعاً للدين, B. 456-457) to'rt turga bo'lingan holda keltiriladi:

1. Allohdan boshqaga sig'inish;
2. dunyo rohat uchun yaratilgan, deb e'tiqod qilish;
3. Allohni inkor qilish;
4. qiyomat kunida tirilishni inkor qilish.

Dabusiylar asarda inson aqliga katta e'tibor bergan, unga mustaqil hujjat sifatida qaragan va inson bajaradigan amallarning muboh yoki haromligini aniqlashda aqlning tutgan o'rnini ko'rsatib bergan.

Shu o'rinda A. Sh. Juzjoniylar Dabusiylar va uning "Taqvimul adilla" asariga: "... Abu Zayd Dabusiylar o'z asarlari, xususan "Taqvimul adilla" kitobida qiyos metodini misli



ko‘rilmagan uslubda keng qamrovli yoritib o‘tdi, unga tegishli barcha muhim va murakkab atamalar, qonun-qoidalarini izohlab berdi”⁶ deya ta’rif bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Zayd Dabusiyy. Taqvimul-usul. — Toshkent. — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. — Qo‘lyozmalar asosiy fondi. — Qo‘lyozma № 3157.
2. Muhammad Abdulhayy Laknaviy. Al-Favoidul-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya / Ahmad az-Za’biy tahriri ostida. — 1-nashri. — Bayrut: Dorul-Arqam ibn al-Arqam, 1418/1998.
3. Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o. Tojut-tarojim fi tabaqotil-hanafiyya. — Bag‘dod: Matba’at al-oniy, 1962.

⁶ Абу Зайд Дабусий. Инсон қалбининг илмдан олдинги ва ундан кейинги ҳолати ҳақида / Арабчадан А.Ш. Жўзжоний таржимаси. — Имом ал-Бухорий сабоқлари. — Тошкент, 2005. — № 2-3. — Б. 108-109 (бундан кейин: ад-Дабусий, “Тақвим ал-адилла”дан таржима). — В. 5.